

Gidrometeorologiya xizmati agentligining korrupsiyaga qarshi menejment tizimining nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standart hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, Gidrometeorologiya xizmati agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimi (KQKMT)ning belgilangan talablariga nisbatan nomuvofiqliklarni aniqlashda ish tartibini belgilaydi. Nomuvofiqliklar ularning qaytarilishini oldini oladigan tarzda aniqlanadi va boshqariladi.

2. Mazkur tartib nomuvofiqliklarni identifikatsiyalash usullarini, vakolatlarini va majburiyatlarini, shuningdek nomuvofiqliklarni hujjatlashtirilgan baholash va boshqarishni o‘z ichiga oladi

3. Ushbu tartibning maqsadi tuzatuvchi choralarni aniqlash va amalga oshirish usullarini aniqlashdan iborat. Tuzatuvchi choralari keyingi yo‘nalishlarga qaratilgan:

- a) tuzatuvchi choralarini belgilash va samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- b) nomuvofiqlikni sabablarini oldini olish;
- c) nostandart vaziyatlar natijasida olingan tajribani shakllantirish va uni xodimlar e‘tiboriga yetkazish.

4. Ushbu tartibning talablari KQKMTning barcha aniqlangan nomuvofiqliklariga, audit davomida aniqlangan nomuvofiqliklarga, shuningdek, korrupsiya holatlari yoki shubhalari haqida xabar bergan shaxslardan olingan nomuvofiqliklarga nisbatan qo‘llaniladi.

5. Mazkur tartib vazirlikning barcha bo‘linmalarida qo‘llaniladi.

6. Ushbu tartib quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanadi:

Jarayon – rejalashtirilgan natijalarni olish uchun ma‘lumotlardan foydalanadigan o‘zaro bog‘liq yoki o‘zaro ta’sirli harakatlar to‘plami;

Menedjment tizimi – siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish uchun tashkilotning o‘zaro bog‘liq yoki o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlari va ushbu maqsadlarga erishish uchun jarayonlar to‘plami;

Tartib-taomil – tashkilotning funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud

ma'lum bir funksiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan harakatlar yig'indisi;

Funksiya – bir nechta tartib-taomilni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan tashkilotning ichki jarayon (faoliyat yo'nalishlari)laridan biri;

Samaradorlik – rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish va rejalashtirilgan natijalarga erishish darajasi;

Xavf – noaniqlik ta'siri;

Poraxo'rlik – amaldagi qonunchilikni buzgan holda, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita va joylashgan joyidan qat'i nazar, shaxsning vazifalarini bajarishi munosabati bilan harakat qilgan yoki harakat qilishdan bosh tortgan shaxs uchun har qanday qiymatni taklif qilish, va'da qilish, berish, qabul qilish yoki talab qilish;

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Nomuvofiqlik – talabga rioya qilmaslik;

Tuzatish – aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf etish bo'yicha harakat;

Tuzatuvchi choralar – nomuvofiqlik sababini bartaraf etish va uning takrorlanishining oldini olish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar;

Yuqori rahbariyat – tashkilotni eng yuqori darajada rahbarlik qiladigan va boshqaradigan shaxs yoki shaxslar guruhi;

Boshqaruv organi – tashkilot faoliyati, boshqaruvi va siyosati uchun vakolat va mutlaq javobgarlikka ega bo'lgan, yuqori rahbariyat hisobot beradigan va yuqori rahbariyat oldida javobgar bo'lgan shaxslar guruhi yoki organ;

Tahlil – maqsadlarga erishish uchun obyektning muvofiqligi, etarliligi yoki samaradorligini aniqlash;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa bo'yicha xodim yoki bo'linmaning subyektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori.

7. Agentlikning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari nomuvofiqliklarni va ularni tuzatuvchi choralarni boshqarish uchun javobgardirlar.

8. Nomuvofiqliklarni aniqlash tartibi sxemasi 1-ilovada keltirilgan.

II. Nomuvofiqliklarni aniqlash

9. Nomuvofiqliklar quyidagi hollarda aniqlanadi:

10. Ichki audit dasturini tuzishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

a) ichki va tashqi auditlar paytida;

b) KQKMT jarayonlarining belgilangan mezonlarga muvofiq samaradorligini monitoring qilishda;

- c) jarayonlar va bo‘limlar faoliyatini amalga oshirishda;
- d) Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi, Yuqori rahbariyat va Boshqaruv organi tomonidan KQKMT samaradorligini tahlil qilishda;
- e) Agentlikning korrupsiyaga qarshi Siyosatini buzganligi haqidagi shubhalar to‘g‘risida ma’lumot olish;
- f) korrupsiyaga shubha va korrupsiyaga qarshi Siyosat va Agentlikning KQKMT qoidalarini buzish haqidagi ma’lumotlarni tekshirishda.

11. Ichki audit davomida aniqlangan nomuvofiqliklar belgilangan talabga muvofiq ichki audit dalolatnomasida qayd etiladi.

12. Tashqi audit yoki faoliyatning muvofiqlik auditi paytida aniqlangan nomuvofiqliklar ushbu tashqi audit uchun belgilangan talablarga muvofiq qayd etiladi.

13. KQKMT jarayonlari samaradorligini monitoring qilish jarayonida, shuningdek, muvofiqlikni nazorat qilish bo‘limi, Yuqori rahbariyat va Boshqaruv organi tomonidan KQKMT samaradorligini tahlil qilishda aniqlangan nomuvofiqliklar yig‘ilish bayonnomasida qayd etiladi.

14. Jarayonlar va bo‘limlar faoliyatini amalga oshirish jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar to‘g‘risida nomuvofiqlikni aniqlagan xodim tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limiga xabar beriladi. Mas’ul xodim tomonidan nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralar jurnalida 2-ilova shakliga muvofiq qayd etiladi.

15. Xizmat tekshiruvi jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar, korrupsiya va huquqbuzarliklarda gumon qilinganligi haqidagi ma’lumotlar xizmat tekshiruvini o‘tkazish tartibining belgilangan shakllariga muvofiq qayd etiladi.

III. Nomuvofiqliklarni tahlil qilish, baholash va ularning sabablarini aniqlash

16. Nomuvofiqliklarni tahlil qilish, baholash va ularning sabablarini aniqlash Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi xodimlari tomonidan KQKMT jarayonlari rahbarlari va tegishli jarayonlarning mas’ul ishtirokchilari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

17. Nomuvofiqliklarni ko‘rib chiqish muddati 5 ish kunidan oshmaslik lozim.

18. Nomuvofiqliklarni sabablarini aniqlashda asosiy sababni aniqlash uchun umumiy qabul qilingan usullar qo‘llaniladi, masalan:

- a) “besh nima uchun?” usuli;
- b) baliq suyagi diagrammasi;
- c) “miya hujumi”;
- d) muammoni tavsiflash uchun mantiqiy savollar zanjirini qurish va h.k.

19. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi xodimlari nomuvofiqlikni aniqlagandan so‘ng:

- a) zarur hollarda Agentlikning boshqa tarkibiy bo'linmalarida ham xuddi shunday nomuvofiqliklar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida aniqlangan nomuvofiqlik haqida tegishli tarkibiy bo'linmalarni yoki xodimlarni xabardor qiladi;
- b) korrupsiya xavfi xaritasida aniqlangan nomuvofiqlik bilan bog'liq aniqlangan xavflar mavjudligini tekshiradi;
- c) tuzatuvchi harakatlar zarurligini aniqlaydi

IV. Nomuvofiqlik sabablarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirilishini nazorat qilish

20. Tuzatish chora-tadbirlarini belgilashda ular Agentlikning xavflarini baholash metodologiyasiga muvofiq korrupsiya xavfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashdagi kabi yondashuvga asoslanadi. Agar bir nechta choralarni amalga oshirish kerak bo'lsa, har bir chorani amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni belgilash lozim.

21. Choralar adekvat bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- a) ushbu chorani amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar;
- b) chorani amalga oshirish muddatlari;
- c) choraning kutilgan natijasi/ta'siri;
- d) zarur hollarda choralar rejasini tuzishda boshqa xodimlar ham ishtirok etishlari mumkin.

22. Mas'ul shaxs tomonidan turli sabablarga ko'ra belgilangan muddatda chora-tadbirlar bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda, bu shaxs bajarmaslik sababini asoslab berishi kerak. Zarur bo'lganda, faoliyatni amalga oshirish muddati bajarilgan ishlarning murakkabligi va resurslarni ta'minlanishidan kelib chiqqan holda uzaytirilishi mumkin.

23. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi mas'ul xodimi tuzatuvchi choralarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qiladi. Choralar amalga oshirilganidan so'ng 2-ilova shaklida qayd qilanadi

V. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish

24. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi ichki audit davomida nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha barcha harakatlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni va ularning sabablarini barcha tafsilotlari bilan tahlil qiladi va Yuqori rahbariyatga va Boshqaruv organiga nomuvofiqliklar haqida qisqacha ma'lumot beradi.

25. Tuzatish choralari mavjud bo'lmagan yoki yetarli darajada samarali bo'lmagan taqdirda, nomuvofiqlikning yangi tahlili o'tkaziladi va ularni 3 va 4-boblarda ko'rsatilgan tartibda bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'riladi.

26. Agar ko'rilgan chora-tadbirlar nomuvofiqlik sababini bartaraf etgan bo'lsa, ko'rilgan chora-tadbirlarning samaradorligi to'g'risida bayonnoma tuziladi va bu nomuvofiqlik yopiq hisoblanadi.


27. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi KQKMTni o'zgartirish va xavflar reestrini yangilash zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

VI. Yakuniy qoidalar

28. Zarur hollarda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi agentlik rahbariyatiga mazkur tartib va vazirlik KQKMTning boshqa talablariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar yuzasidan takliflar kiritishi mumkin.

29. Agentlikning KQMTga o'zgartirishlar ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularga o'zgartirishlar kiritish uchun belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Nomuvofiqlik va tuzatuvchi choralarni boshqarish tartibi



Gidrometeorologiya xizmati agentligining
korrupsiyaga qarshi menejment tizimining
nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish
Tartibiga
2-ilova

Nomuvofiqlarning va tuzatuvchi harakatlarni qayd etish shakli

Nomuvofiqlik	Qayerda topilgan	Aniqlangan sanasi	Tuzatish	Nomuvofiqlik sababi	Tuzatish choralari	Tugatish sanasi	Ma'sul shaxs	Samaradorlik tahlili